

TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA TYUTORNING PEDAGOGIK TAFAKKURI.

“Pedagogika” kafedrası
professori Mahkamov U.I.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tyutor pedagogik tafakkurining mazmuni, vazifalari, shakllari, tarbiya jarayonini tashkil etish jarayonlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Tayanch soʻzlar: Taʼlim-tarbiya, milliy ong, tyutor, pedagogik mahorat, tafakkur, kasbiy faoliyat, talaba, malakali mutaxassis, xatti-harakat, manfaat, ehtiyoj, did-farosat, qobiliyat, shaxs, burch, bilim.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi va taʼlim-tarbiya tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi tyutor faoliyatini tubdan oʻzgartirishga hamda izchil, aql zakovatni ishga solgan holda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yoʻnaltirishda yangicha munosabatda ish tutish muhim hisoblanadi. Chunki, oliy taʼlim muassasalarida talabalarning taʼlim-tarbiya jarayoniga boʻlgan munosabatlari tyutorning pedagogik tafakkuri bilan belgilanadi. Tyutor talabaning ichki dunyosini tushunish, boshqa odamlar bilan aloqa oʻrnatish, ularga faol taʼsir oʻtkazish, hamma bilan til topishib ketish, vazminlik, odamlarni ishontirish, bosiqlik va oʻzini tuta bilish, talabchanlik, qatʼiylik, gʻayratlilik, chidamlilik, rahbarlik va tashkilotchilik, oʻzi va boshqalarning xulqini boshqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashi, talabalarda oʻz-oʻzini nazorat qilish imkoniyatini tugʻdiradi va uning samaradorligini taʼminlaydi. Shu jihatdan tyutor oʻz talabalariga, yaʼni muhokama qilinayotgan narsa, hodisa yoki fikr toʻgʻrisidagi tushunchalarni, mavjud qarashlarni shakllantirishi, ushbu jarayonlarni toʻgʻri tahlil qilish mahoratiga ega boʻlishi lozim. Bu uning pedagogik tafakkuri yuqori darajada ekanligini koʻrsatadi. Tyutor oʻz fikrini, gʻoyasini hayotga, amaliyotga qoʻllashda shaxsning xulq-atvori, ijodiy yaratuvchanlik bilimlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Tyutor oʻz bilimini bahsda yoki suhbatda dalillarga asoslangan holda qoʻllashi yoki rad etishi mumkin. Lekin, bunda bilimning oʻzi kamlik qiladi. Egallagan bilim axborotlar majmuidan iborat boʻlib qolsa, unda tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish, yaʼni ijod qilish, amaliyotga uning tatbiq etish salohiyati yetishmasa, u tafakkur madaniyatiga aylanmaydi. Bilim ijodkorlik salohiyati bilan qoʻshilgandagina tyutorning pedagog tafakkuri rivojlanadi. Fikrlash tafakkursiz yuzaga chiqmaydi.

Pedagogik tafakkur umumijtimoiy, xususiy, madaniy-maʼrifiy omillardan iborat boʻlib, insonning ruhiy xatti-harakatini, qarorlarini baholashda, oʻz-oʻziga tanqidiy munosabatda boʻla olishni koʻrsatadi.

Pedagogik tafakkurni shakllantirish jarayonida tyutorning irodasi, ruhiyati, teran bilimga va aqlga ega boʻlishi uning imkoniyatlarini toʻla roʻyobga chiqaradi. Uzil-kesil xulosaga kelish, qarorlar qabul qilish masʼuliyatidan choʻchimaslik,

fikrlashi, irodasi uni istagan tomonga yetaklashi, ongini istagan tarzda boshqarish imkonini beradi.

Tyutorning pedagogik tafakkuri o'z mohiyatiga ko'ra talabalar jamoasi va har bir shaxsni o'rganishda bir nuqtai nazardan emas, balki turlicha yondoshuvni amalga oshirishi, ayniqsa, zid keladigan, inkor qiladigan aloqalarni tekshirishi, tahlil qilishi, unga yaxlit tizim sifatida qarashi ya'ni ichki aloqalarni, qarama-qarshiliklarni, ziddiyatlarni aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Tyutorning pedagogik tafakkuri ta'lim-tarbiya faoliyati, talabalarning faoliyati bilan bog'liq. Uning hayotiy ehtiyojlarini ob'ektiv talablarini oqilona va tejamli qondirishda vujudga keladigan turmush muammolarini imkon qadar to'g'ri yechish tyutorning ilmiy, falsafiy, diniy, estetik, axloqiy, huquqiy qarashlarida o'z navbatida talabalar bilan o'zaro bog'liqlikda, jamoa va mehnat jarayonida, o'z xatti-harakatlarida, ayniqsa, to'plangan bilimlarni, ko'nikmalarni saqlab qolib yosh avlodga o'rgatishda, uni yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutadi.

Tyutorning pedagogik tafakkuri talabalar jamoasining ichki va tashqi aloqalari mustahkamlaydi. Ular o'rtasidagi munosabatlar, faoliyat taraqqiyoti, ijtimoiy jarayonlar uning insonparvarlashuv imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqaradi. Chunki, tyutor faoliyati tarbiya mazmunidagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa yo'nalishlarining mohiyati, tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, to'g'ri tushuntirish, tahlil qilish, xalaqit beruvchi omillarni bartaraf etish yo'llarini topish uning bilimiga bog'liq. Buning uchun tyutor ijodkor bo'lmog'i kerak. Chunki, yangi O'zbekiston taraqqiyotida, yangi jamiyat qurayotgan bizning xalqimiz hayotining barcha sohalarida islohotlarni yuqori sur'atlarda va muvaffaqiyatli davom ettirishda, ba'zi davlatlarning geografik-siyosiy va mafkuraviy tazyiqlarining oldini olishda, diniy-ekstremistik tashviqotlarni bartaraf etishda, milliy o'ziga xoslikni va hatto milliy ma'naviyatni muhofaza qilishda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shu jihatdan ham tyutor yoshlarni mustaqil, tanqidiy va erkin fikrlashga o'rgatishlari, ular tafakkurini bunyodkorlikka yo'naltirishlari, ijodiy fikrlarini rivojlantirishlari asosida insonparvarlik, taraqqiyparvarlik darajasiga ko'tarish, ongini rivojlantirish natijasida ularda olamga, jamiyatga, insonga turli voqea va hodisalar, g'oyalar va e'tiqodlarni idrok etishga, baholashga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi.

Tyutorning pedagogik tafakkuri ona tilini rivojlantirishga, boyitishga, madaniy merosni, xalqimizning urf-odatlarini tiklashga, ayni paytda ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitishga, umuman ma'naviy yuksalish, iqtisodiyot va davlat qurilishi, yangi avlodni erkin, ijodiy va mustaqil fikrga ega, siyosiy va ijtimoiy tayyorlash vazifalari amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda talabalarni milliy va umuminsoniy ruhida tarbiyalash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamlil vazifalarni hal etishga qodir yangi avlod kadrlarni tayyorlash masalasi tyutorning pedagogik tafakkuriga bog'liq.

Lekin ba'zibir tyutorlar faoliyatida iqtisodiy, huquqiy bilim bilan bog'liq jihatlari yetarli emas. Bu borada yuz berayotgan o'zgarishlar ylar ongi, tafakkuri, ruhiyati, urf-odatlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimiga mos bo'lishi

lozim.

Tyutor chuqur ilmiy saviyaga, so‘zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bo‘lishi kerak. Talabalar bilan o‘tkaziladigan suhbatlarni yuqori saviyada tashkil qilishda tyutorning ruhiy madaniyati, ya'ni talabalarning ma'naviy ehtiyojlariga to‘g‘ri ta'sir ko‘rsatish, o‘z mahorati bilan har bir tadbirni zo‘r quvonch va qalbdan tashkil qilish, siyosiy yetukligi davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo‘lish, ma'naviy jihatdan ularning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilish ishlarini amalga oshirish lozim.

Bundan tashqari, tyutor o‘zining tashqi ko‘rinishiga ham e'tibor berishi, toza-ozoda, ixcham kiyinishi, oliy ma'lumotli, chuqur bilim egasi, o‘zining faoliyatini puxta biladigan, yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun jonini fido qilishga tayyor, o‘z shogirdlaridan bilimi, malakasini ayamaydigan, talabalarga aziz, do‘st, sirdosh, fidokor bo‘lmog‘i lozimdir.

Tarbiya jarayonini boshqarishda tyutorning har bir daqiqasi qimmatli hisoblanadi. Chunki, tyutor talabaning diqqatini hisobga olgan holda ular bilan tushuntirish, tartibga chaqirish va salbiy holatlarni bartaraf etish, yangi mavzular bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish asosida talabalarda ishonch, o‘zaro yordam kabi hamkorlik ishlarini amalga oshiradi. Bunda tyutor talabalar tomonidan aytiladigan turli gaplarga sukut saqlashiga, tushunmaslik holatlariga tezlik bilan e'tibor qaratishi va turli axborotlarga javob topishi muhim hisoblanadi.

Tyutor talabalar bilan yakkama–yakka faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun ularning shaxsini, oilaviy ahvolini bilishi, ularni to‘liq o‘rganishi, tarbiyaviy tadbirlarni mukammal, taʼsirchan uyushtirishi tarbiya jarayonida ularda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga qiziqtirish, rostgo‘y, ma’rifatli, mehrlil, o‘z-o‘zini boshqarish, mehnatga munosabatini, ruhiy holati va qobiliyatlarini rivojlantirish, undagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni kuzatish va sababini o‘rganish, yolg‘on gapirish va boshqa salbiy sifatlarni aniqlash uning mahoratiga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb ko‘nikmasiga bog‘liq.

Tyutor tarbiya jarayonini samarali bo‘lishi uchun turli xil ko‘rgazmalardan, texnik vositalardan unumli foydalanishi, buyuk mutafakkirlarimizning asarlari, ularning xikmatli so‘zlari, turli qahramonlik lavhalari tasvirlangan rasmlar, odob–axloq mavzusidagi filmlar talabalar shaxsiga ta'sir qiladi. Ularni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o‘zbek xalqining milliy va madaniy qadriyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda talabaning ruhiyati, qiziqish jarayonidagi ijobiy va salbiy sifatlarning mavjudligi darajasiga e'tibor berish, ularning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo‘lish tyutorning pedagogik tafakkuriga bog‘liq. Tyutorning bu mashaqqatli mehnatlarini qadrlagan holda talabalarning o‘zlari ham yaqin yordamchi bo‘lishlari kerak. Shu o‘rinda Voiz Koshifiyning “Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so‘rasalar javob bergil: Iroda va sabr toqat, nimaiki ustoz istasa, uni jon qulog‘i bilan eshitib, chin ko‘ngil bilan qabul qilish, e'tiqodli bo‘lishdir” degan so‘zlari o‘rinlidir. Chunki, tyutorlarning pedagogik tafakkuri talabalarning qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Ularning ijodiy faoliyati o‘z ustida olib borayotgan ishlarini takomillashtiradi.

Tyutorning talabalar bilan har xil musobaqalar, bellashuvlar o‘tkazishlari ham uning bilimiga bilim qo‘shadi, dunyoqarashini o‘stiradi, kursdoshlari bilan aloqani mustahkamlaydi, mustaqil fikrlashga undaydi. Oliy ta’lim muassasalarida tashkil qilingan har xil to‘garaklar ham talabalarning tarbiyasiga ta'sir qiladi. Qaysi tyutor tashkilotchi, yangiliklarga intiluvchan bo‘lsa, uning talabalari inoq, mehribon bo‘lib, ular ilmning qadriga yetadigan barkamol inson bo‘lib ulg‘ayadilar. Demak o‘quv-tarbiya jarayonining natijalari tyutorning tafakkuriga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb ko‘nikmasiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Зинченко, А. П. Тьютор: менеджер — маркетолог — продавец : расширенный взгляд / А. П. Зинченко // Система обеспечения качества в дистанционном образовании. — Жуковский : МИМ ЛИНК, 2002.
2. Колосова, Е. Б. Тьютор как новая педагогическая профессия / Е. Б. Колосова. М.: Чистые пруды, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Маънавий маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида ПҚ-3160 қарори. 2017 йил 28 июль. Lex.uz.